

JAMSHID OBRAZINING GENEZISIGA DOIR

Matluba JABBOROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
e-mail:mdjabborova86@mail.ru

Abstract: *There are many Turkic superheroes depicted in the ancient folklore, literary fiction, and historic prose. For centuries, people in many regions of ancient Uzbekistan and Iran glorified the extraordinary traits of brave Jamshid who is famous for his immortality, symbol of happiness, and creator of all handcrafts and professions.*

This article introduces the historical ethno genesis of Jamshid, how his characters developed with time into a symbol of bravery, immortality, glory, and prosperity. The very first image of Jamshid can be found in the Iranian manuscripts of ancient "Avesto" and Indian mythology. Additionally, the author observes the interpretation of Jamshid in various historically works and literary fiction.

Key words: *historical fiction, depiction of the superhuman, ethno genesis, "Avesto", Indian-Iranian mythology*

Kirish

Afsonaviy Jamshid obrazining paydo bo'lishi va tarixiy-badiiy asarlardagi talqini, qahramonga xos bo'lgan xususiyatlarining asardan-asarga ko'chganida rivojlanib borishi kabi jarayonlarni kuzatish adabiyotshunoslikda an'anaviy obrazning o'ziga xosligi xususida mulohaza yuritish imkoniyatini beradi. Jamshid obrazi haqidagi ilk ma'lumotlar "Avesto" kitobida hamda hind-eron mitologiyasida keltirilgan. Mazkur ma'lumotlar Jamshid haqidagi dastlabki tasavvurlarni berib, keyinchalik uni turli tarixiy-badiiy asarlardagi talqinini kuzatishda ham asqotadi.

Jamshid obrazi VIII-IX asrlarda yaratilgan Abu Hanifa Diynavariyning

asarida musulmonlashtirib talqin etiladi. Birinchi bo'lib Diynavariy Jamshidni Nuh payg'ambarning avlodi sifatida tilga oladi. Ushbu yangilik, ya'ni Jamshidni Nuh allayhissalomning zurriyodi sifatida talqin etish an'anasi o'zbek adabiyotidagi Jamshid qissasida ham aks etgan.

Jamshid badiiy obraz sifatida ilk marotaba "Shohnoma"da o'z ifodasini topadi. Abulqosim Firdavsiy Jamshid obrazining "Avesto"dagi xususiyatlarini saqlagan holda uni qayta rivojlantiradi va original obrazga aylantiradi. Natijada, Jamshid Firdavsiy "Shohnoma"sidan keyin yaratilgan asarlar uchun an'anaviy obraz, u haqdagi tafsilotlar esa an'anaviy syujetga aylanadi.

Bundan tashqari, as-Saolibiyning “Kitob al-g’urar” asarida ham Jamshid haqidagi hikoyat keltiriladi. Ushbu asar o’zbek adabiyotshunosligida Firdavsiy “Shohnoma”sining arabcha nasriy varianti deb talqin etilsada, Saolibi Jamshidni o’ziga xos tasvirlaydi.

Jamshid obrazining at-Tabariyning “Tarixi Tabariy”, al-Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida ham esga olinishi, uning tarixiy obrazga yaqinlashishiga sabab bo’ladi.

An’anaviy Jamshid obraziga murojaat, ayniqsa, fors-tojik adabiyotida ko’proq ko’zga tashlanadi. Umar Xayyom, Fariddin Attor, Hofiz Sheroziy she’riyatida Jamshid siymosining o’ziga xos talqinini kuzatish mumkin. Xususan, Attorning “Ilohiynoma” asarida “Jomi Jam” haqida ibratomuz hikoyat keltiriladi. Keyinchalik mazkur obraz o’zbek adabiyotiga ham kirib keladi. O’zbek mumtoz adabiyoti namunalari Jamshid nomi qayta-qayta tilga olinadi, unga xos bo’lgan bunyodkorlik, elparvarlik va adolatlilik jihatlari madh etiladi. Hatto, o’zbek adabiyotida “Qissai Jamshid” nomli xalq kitobi ham yaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Jamshid obrazining turli talqinlari haqida Abu Hanifa Ahmad Dovud Diynavariy [Al-axbor al-Tavol, 1911.], Abulqosim Firdavsiy [Shohnoma, 2011.], Abu Mansur Saolibi [Ghurur Akhbar Mulak al-Furs wa-Siyarihim, 1900.], Tabariy [Tarixi Tabariy], Abu Rayhon Beruniy [Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, 1968.]larning asarlarida zikr etilgan. Afsonaviy shoh Jamshid obrazining badiiy adabiyotga kirib kelguniga qadar adabiy, tarixiy, diniy asarlardagi talqini haqida,

ya’ni ushbu mavzuning paydo bo’lishi yuzasidan chet el tadqiqotchilarining ba’zi ilmiy mulohazalari mavjudki, bular Jamshid obrazining genezisini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Hatto, rus tarixchisi V.Ogudinning [Ogudin V. 2003.] dissertatsiya ishida Jamshid bilan Sulaymon payg’ambar bir obraz degan g’aliz ma’lumot ham uchraydi. Shuningdek, Jamshid qahramonining Diynavariy, Firdavsiydagi talqini haqida [Ghazzal Dabiri. 2007.], [Mallaev N.M. 1974.], [Omid Shiva. 2013.] kabi olimlarning ba’zi ilmiy mulohazalari mavjud. Shunga qaramay, hozirga qadar an’anaviy Jamshid obrazining paydo bo’lishi va tarixiy taraqqiyoti xususida tugal tadqiqot olib borilmagan.

MUNOZARALAR VA NATIJALAR

“Al-Axbor al-Tavol”da Jamshid obrazi

Toshkent davlat Sharqshunoslik institutining tadqiqot markazi qo’lyozmalar bo’limida inv. №17049 “كتاب الاخبار” nomli, arab tilida chiroyli nasta’liq xati bilan bitilgan, hijriy 1330, milodiy 1911 yilda toshbosma usulida nashr qilingan asarning bir nusxasi saqlanadi. Kitobning xajmi 13x20. Sahifasi 383 bet. Ushbu nashr muallifi arabiynavis olim Abu Hanifa Ahmad Dovud Diynavariydir.

Muallifning mazkur “Al-Axbor al-Tavol” asarida payg’ambar va podshohlar haqida hikoya qilinadi. Asarda dastlab Odam allayhissalomning yaratilishi bayon etiladi. So’ng uning o’g’li Nuh payg’ambar va uning avlodi tilga olinadi. Diynavariyning naql qilishicha, “Nuh alayhissalomning bolalari bir xil tilda, suriyon tilida gaplashishar edi. Bir kuni ular uyqudan uyg’onishsa, barchasi turlicha gapirayotgan emish va bir-birini tushunmasmish. Shundan so’ng

ular uydan chiqib ketishib, turli mamlakatlarda qaror topishibdi va ko'payishibdi. Somning avlodi Jamshid esa ushbu mamlakat – Bobilda qolibdi va mamlakat podshohligiga asos solibdi" [Diynavariy., 1911: 3]. O'shandan buyon turli millat va tillarning kelib chiqishi ana shu voqeaga borib taqalar emish.

Xususan, podshoh Jamshid haqidagi ba'zi ma'lumotlar "Al-Axbor al-Tavol" asarida shunday keltiriladi. Diynavariy shoh Jamshidni Nuh payg'ambarning o'g'li Somning naslidan ekanligini ta'kidlaydi;

وقام بالاً مر بعده ابنه صالح فلما حضرته الوفاة
أسند الأ مر الى ابن أخيه جم ابن ويونجهان ابن
رفخشذ فثبت أساس الملك ووطر ر انهويني
معالمه واتخذ يوم النبروز عيداً

"Ya'ni, Jamshid Somning Arfaxshaz degan o'g'lining Yunjahon otliq farzandining zurriyodidir" [Diynavariy., 3]. Diynavariy asarida Jamshidning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar boshqa manbalardagi qaydlardan birmuncha farq qiladi. "Avesto"da Jamshid Vayvanghonning o'g'li sifatida tasvirlansa, Diynavariyda u bevosita Nuh payg'ambarning avlodi sifatida talqin etiladi. Keyingi davrlarda yaratilgan Firdavsiy, Saolibiy, Tabariy, Beruniy va hatto, Navoiyning asarlarida ham Jamshid Kayumars odamning avlodi sifatida zikr etilgan. Biroq o'zbek xalq kitobi "Qissai Jamshid"da shoh Jamshidning kelib chiqishi Nuh payg'ambarga borib taqaladi. Demak, Jamshidning Nuh payg'ambarning avlodi sifatidagi talqini Diynavariydan boshlangan ekan.

"Al-Axbor al-Tavol"da ham boshqa manbalar kabi Navro'z bayramining paydo bo'lishi Jamshid nomiga bog'lanadi. Asarda Jamshid haqidagi ma'lumotlar juda qisqa bayon etilgan. Yana bir o'rinda Diynavariy "Jamshid aslida

Sulaymon payg'ambar" degan xato qarashga o'z munosabatini bildirib, buning noto'g'ri ekanligini aytib o'tadi. "Ayrim bilimsiz forslarning ishonishlaricha, Jamshid aslida Sulaymon ibn Dovud emish. Lekin bu noto'g'ri faraz, chunki Jamshid va Sulaymonning yashash davrining oralig'i uch ming yildir" [Ghazzal Dabiri., 2007: 46]. Bu kabi fikrlarning berilishiga ba'zi manbalardagi Jamshid va Sulaymon obrazlarini birlashtirishga oid taxminlar sabab bo'lgan.

Masalan, rus olimi V.Ogudin Jamshid va Sulaymon obrazlarining o'zaro yaqinligini qomusiy olimlarning asarlari misolida isbotlashga harakat qiladi. "Jamshid va Sulaymon obrazlarining o'zaro yaqinligi to'g'risida X asrda bir-biridan bexabar holda Ibn Sino va Beruniylar ham ma'lumot berishgan. Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida ma'lumot beradi: "Rayhoni Sulaymon o'simligi bu Jamisparam deb ataluvchi o'simlikning o'zi", shu sababli xalq orasida Jam va Sulaymon bir odam degan tasavvurlar mavjud. Beruniyning "Farmakognoziya" asarida "Jamisparam – bu o'simlikning bir turi bo'lib, uni Jam nomi bilan bog'lashadi", shuning uchun ayrim forslar uni Rayhoni Sulaymon deb atashgan" [Ogudin V., 167] Tadqiqotchi shu kabi misollarga tayangan holda bu ikki obrazning bir shaxs bo'lishi mumkin [Ogudin V., 179] degan xulosaga keldi. Biroq bizning nazarimizda, bu misollar Jamshid va Sulaymonni "aslida bir shaxs" deyish uchun asos bo'la olmaydi va Diynavariy ta'kidlaganidek, bu umuman mantiqqa to'g'ri kelmaydigan farazdir.

Diynavariyning asarida voqealarning keyingi rivoji "Avesto"dagi syujet bilan deyarli bir xil. "Farqli jihati Diynavariy al-Zahhok obrazini murakkab xarakter-

da talqin etadi, u yovuz obrazmi yoki ijobiy qahramonmi bir qarashda ajratish qiyin. Unda ijobiy obrazning asta-sekin o'ta yovuzlashuvi ko'zga tashlanadi" [Ghazzal Dabiri., 49].

Diynavariyning talqinidagi Zahhok ham Somning avlodi. Ya'ni, uning shajarasi quyidagichadir. Som → Aram → Od → Amliq → Shaddod → Zahhok. Asarda Zahhok asli Yamanlik ekanligi aytiladi. Uni Ajamliklar "Biovaras" deb atashadi. Zahhok dastlab har jihatdan ibratli shahzoda sifatida tasvirlanadi. Biroq bir kuni u iblisning so'ziga kirib, sehrlangan suratga qaraydi va uning yelkasida ilon o'sib chiqadi. Shundan so'ng al-Zahhokda yovuzlik illatlari rivojlanadi. U odamlarni o'ldirib, yelkasida o'sib chiqqan ilonlariga yemish qiladi. Ushbu obraz "Avesto"da uch boshli ajdaho tarzida ham tasvirlanadi. Zahhokda badfe'llik alomatlari paydo bo'lgach, bosqinchilik bilan shug'ullanadi. Xususan, Bobilni bosib olish uchun Jamshidning iziga tushadi.

Podshoh Jamshidning keyinchalik hukmronligini yo'qotishi, odamlarning Zahhok tomoniga o'tib ketishi kabi lavhalar an'anaviy syujetga Diynavariy tomonidan kiritiladi va arab xalqiga oid tarix kitoblarida, xususan, Vahb ibn Munabbih va ibn Kalbi asarlarida saqlanib qoladi. Keyinchalik unutilayozgan ushbu syujet muayyan vaqt o'tgach, Firdavsiyning asarida qayta tasvirlanadi va syujet chizig'ida mustahkam o'rin egallaydi. Chunonchi, "Jamshid yuzining qaro bo'lishi, ya'ni Jamshid takabburlikka berilib, razolatga yuz tutishi va Zahhok tomonidan uning taxti tortib olinishi haqidagi voqealar axloqiy hikoyatlar tarzida yuzaga keladi va naql qilinadi" [Ghazzal Dabiri., 50].

"Al-Axbor al-Tavol"da Jamshidni nabirasi Nimruz al-Zahhokni mahv

etadi va otasining saltanatini qayta qo'lga kiritadi. Ushbu obraz fors adabiyotida Faridun nomi bilan mashhur. Diynavariyning mahorati shunda ko'rinadiki, muallif Jamshid, al-Zahhok, Faridun kabi mifologik obrazlarni avvalgi "Avesto"dagi xususiyatlarini saqlagan holda ularni tarixiy-badiiy hikoyat qahramoniga aylantiradi. Jamshidning taxtdan tushib, o'rniga Zahhok hukmronlikni qo'lga olishi, Zahhokning murakkab xarakter talqini va oxir-oqibat, ezgulikning tantana qilishi ushbu asarda o'ta jonli va qiziqarli bayon etiladi. Jamshid timsoli shu tarzda afsonaviy mifologik obrazdan tarixiy-badiiy asar qahramoniga aylanadi.

Diynavariyning ushbu asarida Jamshid haqida juda qisqa ma'lumot beriladi. Xususan, uning yaratuvchilik fazilatlarini, bunyodkorlik ishlari umuman tilga olinmaydi; an'anaviy obrazga xos bo'lgan ijobiy va salbiy xislatlar deyarli yoritilmaydi. Biroq muallif Jamshidni podshohlikka asos solgan birinchi hukmdor sifatida alohida e'tirof etadi.

Demak, Diynavariyning mazkur asarida Jamshid siymosi yer yuzining dastlabki hukmdori, payg'ambar avlodidan chiqqan birinchi podshoh tarzida talqin etiladi. Va mazkur asarda ilk bor ta'kidlangan shoh Jamshid Nuh payg'ambarning zurriyodi ekanligi haqidagi ma'lumot o'zbek adabiyotidagi Jamshid qissasiga monand va ushbu syujetning yaratilishida asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

"Shohnoma"da Jamshid madhi

Diynavariydan keyin Jamshid mavzusiga qo'l urgan va uni badiiy asar qahramoniga aylantirgan shaxs Abulqosim Firdavsiydir. Podshoh Jamshid haqidagi an'anaviy syujet "Shohnoma"da ham keladi va birinchi

marotaba badiiy obraz sifatida talqin etiladi.

Firdavsiy "Shohnoma"ni yaratishda xalq og'zaki ijodi bilan birga yozma manbalardan ham keng foydalanadi. Bunday manbalardan biri va muhimi zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"dir [Mallaev N.M., 1974: 96]. Firdavsiy Jamshidning "Avesto"da talqin etilgan xususiyatlarini saqlagan holda, obrazning yangi qiralarini ochadi, badiiy jihatdan mutlaqo o'ziga xos tarzda qayta yaratadi.

Shuningdek, Firdavsiyning "Shohnoma"sida Eron podshohlari haqidagi turli rivoyat va afsonalarda parokanda holatda saqlanib kelgan ma'lumotlar muayyan tartibga keltiriladi, qayta ishlanadi va bir syujet zanjiriga tizib tasvirlanadi. Natijada, fors podshohlari haqidagi xronikali syujetga ega asarlar monumental badiiy asarga aylanadi. "Shohnoma" dostonlarida to'rt ming yillikka yaqin voqealar tasvirlanadi. Ushbu voqealarda afsonaviy, tarixiy shaxslar ishtirok etadi. Xullas, Firdavsiyning "Shohnoma"sida eroniy podshohlarning sulolaviy tarixi badiiy siymosi yaratiladi. "Shohnoma"ga yuzaki qaraganda undagi qissalar shohliklar silsilasi tasviriga bag'ishlanganday ko'rinadi. O'zi ham "Shohlar haqida kitob" deb ataladi, ammo uning mazmuniga hushyorroq nazar tashlansa, uning xalq xayolida yaratilgan va xalq qalbida ardoqlanib kelayotgan qadimiy qahramonlar, epik bahodirlar, oddiy mehnat ahli vakillari haqidagi qissalardan iborat ekanligini idrok etish unchalik mushkul emas [Firdavsiy A., 2011: 6-8].

"Shohnoma"da afsonaviy podshoh Jamshid obrazi o'ta haroratli va jonli tasvirlanadi; Jamshidning ezgu amallari barcha podshohlarga o'rnak qilib ko'rsatiladi, salbiy harakteri qoralanadi.

Firdavsiy Jamshidni Kayumars podshohning avlodi, shoh Tahmurasning o'g'li tarzida tasvirlaydi. Qadimgi yozma manbalarda, xususan, "Avesto"da Jamshid Vayvanghonning farzandi ekanligi yoziladi. "Shohnoma"dan taxminan bir asr avval yaratilgan Diynavariyning asarida esa Jamshid Nuh alayhissalomning avlodi tarzida beriladi. Demak, Firdavsiy Jamshidni Kayumars odam avlodi tarzida tasvirlab, Jamshid haqidagi original syujetni yuzaga keltiradi.

"Shohnoma"da Jamshid Kayumars odamning o'g'li Xushangning nabirasi, ya'ni Tahmurasning vorisi sifatida tasvirlanadi. U otasi Tahmurasning o'limidan so'ng taxtga o'tiradi va 700 yil hukmdorlik qiladi. E'tiborli jihati, Kayumars 30 yil, Xushang 40 yil, Tahmuras 30 yil podshohlik qiladi, Jamshid esa 700 yil davomida taxtni boshqaradi.

Yetti yuz yil hukmronlik qilgan Jamshid zamonasida kishilar Axrimanning zulmidan qutuladilar, uning zamonida muhtojlik, kasallik va o'lim yo'qolib ketadi. Firdavsiyning Jamshidi shu jihatlari bilan "Avesto"dagi Yima(Jamshid)ga juda monanddir[Mallaev N.M., 99]. "Shohnoma"dagi ko'p dalillar muallif asarni bitishda boshqa manbalar bilan birga "Avesto"dan ham keng foydalanganligini ko'rsatadi.

Jamshid taxtga o'tirgach, bir qancha kashfiyotlar qiladi. Uning podsholigi davrida qurol-aslahalar, mato-yu gazlamalar, kiyim-kechaklar yaratiladi. Firdavsiy ayniqsa, Jamshidning ana shu yaratuvchanlik xususiyatini bo'rttirib ko'rsatadi. Shoh xalqni tabaqalariga ajratib, har bir tabaqa o'z vazifasi bilan shug'ullanishi lozimligini ta'kidlaydi. Birinchi tabaqa Kotuziy, ya'ni ruhoniylar bo'lib, ular xalqdan ajralgan holda tog'u toshlarda yashab, ibodat bilan shug'ul-

lanadilar. Keyingi tabaqa Nisoriy – harbiylardir. Ular mamlakat tinchligini, shohlar toju taxtini qo‘riqlovchi posbonlardir. Uchinchi guruh Nasudiy, ya‘ni dehqonlar bo‘lib, ular birovga qaram bo‘lmay, o‘z kunlarini o‘zlari ko‘radilar. To‘rtinchi tabaqa esa Axtuhushi – hunarmandlardir. Shubhasiz, Jamshid zamonida ularga e‘tibor katta bo‘lgan va shu sababli hunarmandchilik gullab yashnagan.

“Shohnoma”da ilk bor o‘sha davrlardan boshlab g‘ishtdan uy, saroy, hamomlar qurila boshlanganligi tasvirlangan. Shuningdek, Jamshid zamonida qimmatbaho toshlar va xushbo‘y atirlar kashf etiladi, tabobat vujudga kelib, dardlarga shifo topiladi. Shu bois Jamshid davrida o‘lim va kasalliklar bo‘lmagan, xalq shodu xurram, zulm neligini bilmay osoyishta yashagan. Biroq Jamshid o‘z qilgan kashfiyotlaridan g‘ururlanib, takabburlikka beriladi, har narsaning yaratuvchisi menman, deb xudolikni da‘vo qiladi. Xalqning undan ko‘ngli qoladi. Man-manlik, kibr-havo uni yo‘ldan ozdirib, elning nazaridan qoladi. Xalqning noroziligi kuchayadi.

Shundan so‘ng odamlar arablardan chiqqan zolim Zahhok tomoniga o‘tib ketadi. Zahhok Eronga bostirib kelgach, yakkalanib qolgan Jamshid yashirinishga majbur bo‘ladi. Zahhok 100 yildan so‘ng Jamshidni Xitoy daryosi yonida qo‘lga tushirib, arralab ikkiga bo‘lib tashlaydi.

Jamshid ana shunday o‘z takabburligining natijasida halokatga uchraydi va dahshatli o‘lim topadi. “Shohnoma”da keyingi voqealar Iblisning so‘ziga kiruvchi Zahhokning xalqqa zulm o‘tkazishi, nohaq qon to‘kilishi va oxir oqibat Faridun tomonidan mahv etilishi bilan davom etadi. Demak, Firdavsiy Jamshid timsolida, bir tomondan, yurt

obodligi, el farovonligiyu osoyishtaligini saqlovchi donishmand, jasur, tinchlikparvar Jamshidni madh etsa, ikkinchi tomondan, uning o‘zgarishi misolida man-manlikka berilib, hammadan o‘zini ustun qo‘yadigan, xalqqa, olimu fuzalolarga befarq qaraydigan, ular pandiga quloq solmaydigan podshohlarni qoralaydi. Firdavsiyning asosiy niyati ma‘rifatli, donishmand shoh boshchiligidagi obod, ozod, markazlashgan davlat uchun kurash g‘oyasini Jamshid obrazi orqali ifodalashdir.

Firdavsiy Jamshid obrazini yaratishda o‘zining ideal shoh haqidagi tasavvurini ham ifodalaydi. Bunda, albatta, qadimgi manbalardagi afsonaviy qahramon Jamshiddan ijodiy foydalanadi. Keyinchalik bunday syujetli dostonlarning bir qanchasi o‘zbek adabiyotiga o‘zlashib, yozuvchi mahorati bilan sayqallanib, turli asarlar tarkibiga kiritilgan.

“Firdavsiyda Jamshid taxtga chiqqan kun bayram sifatida nishonlanadi” [Omid Shiva., 2013: 22] Jamshid hukmronligi zamonida Navro‘z yaratuvchilik, bahor, shodu xurramlik, dehqonchiligu bog‘dorchilik – umumxalq bayrami sifatida joriy etilgan.

Firdavsiy Jamshid timsolida bir-biriga zid bo‘lgan ikki shoh obrazini yarata-di. Biri adolatli va ma‘rifatparvar shoh Jamshid bo‘lib, shoir uni ulug‘laydi; biri mutakabbir va hudbin shoh bo‘lib, shoir uni qoralaydi, o‘limga mahkum qiladi. Bu bilan Firdavsiy, bir tomondan, mi-fologiyaning asosini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan o‘z davrining muhim problemalaridan(muammolaridan) biri bo‘lgan adolatli hukmron uchun kurash g‘oyasini ilgari surib, adolatli va ma‘rifatparvar Jamshid obrazi orqali hukmronlarni undan o‘rnak olishga, el-yurt uchun xizmat qilishga, ko‘pga tayanishga chaqirsa, mag‘rur va mutakabbir

Jamshidning taqdiri orqali ularni ogohlantiradi [Mallaev N.M., 100].

“Shohnoma”ni o‘zbek tiliga tarjima qilish an‘anasi juda qadimiy, XVII asr boshlaridayoq “Shohnoma”dan “Siyovush” dostoni o‘zbekchaga tarjima etilgan edi. XVIII asrda esa “Shohnoma” o‘zbek tiliga Shoh Hijron, Mullo Xomushiy, Nurmuhammad Buxoriylar tomonidan uch marotaba tarjima etildi. Shuningdek, “Shohnoma” lavhalari tasvirlangan yuzlab miniatyuralar yaratildi. Ana shu tarjimalar, ayrim dostonlarning turkiycha talqinlarining keng xalq ommasi orasiga kirib borishi, uning asosida yaratilgan rivoyatlarning xalq orasida keng tarqalishi Rustam, Jamshid, Afrosiyob kabi “Shohnoma” qahramonlarining xalq og‘zaki ijodiga hamda o‘zbek yozma adabiyotiga singib, o‘z kishisi bo‘lib ketishiga sabab bo‘lgan.

“Shohnoma” tarjimalari o‘zbek xalqi orasida tez ommalashganligining boisi choyxonayu guzarlarda, yig‘inlarda ulardan parchalar aytishib, afsonaviy qahramonlarning jasoratlarini madh etishgan. Natijada, o‘zbek adabiyotida “Shohnoma” ta‘sirida bir qancha xalq kitoblari ham yaratilgan. “Qissai shoh Jamshid”, “Qissai Siyovush”, “Qissai Afrosiyob” kabi asarlarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari shular jumlasidandir. Ularning har biri original syujetga ega asar hisoblanadi. Masalan, “Jangnomai podshoh Jamshid” qissasi “Shohnoma” ta‘sirida yaratilgan, biroq butunlay original syujetga ega qissa bo‘lib shakllangan.

“Kitob al-g‘urar”da Jamshid timsoli

Saolibiyning “G‘urar al-Muluk” asari 1019 yilda yozilgan va Xuroson hukmdori Mahmud G‘aznaviyning akasi Abu al-Muzaffar Nasr ibn Nasriddinga

taqdim etilgan. Biroq u davrlarda Islom tarixi hammaning diqqat markazida bo‘lib, Eroniylar tarixiga esa e‘tibor ancha susaygan edi. Shu sababli Saolibiy o‘z asarini Islom tarixi bilan umum tarixni uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Saolibiyning asarida Nasroniy payg‘ambarlar bilan bir qatorda dastlabki yaratilgan odam; Eronliklardan Kayumars, musulmonlarda Odam al-layhissalom birga tilga olinadi. Bu esa umum sulolaviy tarixning bitilishi keyingi davrlar uchun muhim burilish hisoblanadi. Hatto, Saolibiyga xos bo‘lgan ushbu uslub an‘anaga aylanadi.

Saolibiy “G‘urar”da birinchi yaratilgan inson Kayumars degan munozarani boshlab beradi. Bu mavzu olimlar tomonidan ko‘p bahslashuvlarga sabab bo‘ladi. Oxir-oqibat, ular mifologik obraz Kayumars “musulmonlarning tarixida birinchi yaratilgan inson – Odam”ning o‘g‘li degan xulosaga kelishadi. Tabariyda bu ikki shaxs bir odam yoki Kayumars Odamning Havodan paydo bo‘lgan o‘g‘li degan qarash ham mavjud. Tabariyning fikricha, Kayumars forslarning otasidir [Ghazzal Dabiri., 52].

Saolibiy ham Diynavariy kabi Jamshid va Sulaymon obrazining birlashuviga qarshi ekanligini aytadi. Bu qarashning zahirida juda katta xatolik mavjudligini, ularning yashagan davrlari oralig‘idagi katta tafovut ham ularning bir shaxs emasligining isboti bo‘la olishini ta‘kidlaydi. Saolibiy “Jamshid xuddi Sulaymon kabi ins-jins va devlarni o‘z izmiga bo‘ysundirganligi sababli shunday qarash yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin” [Tha‘alibi, Abu Mansur., 1900: 10] degan fikrni izhor etadi.

Saolibiyning asarida Jamshidning yaratuvchilik fazilatlarini ulug‘lanadi; odamlarni kasb-hunariga qarab to‘rt gu-

ruhga ajratgani madh etiladi. Saolibiy, ayniqsa, Jamshid podshohligi davrida odamlar qarilik, o'lim, ochlik va suvsizlikdan yiroq bo'lishganini alohida ta'kidlaydi. Ya'ni, muallif Jamshidning ezgu xislatlarini bo'rttirib ko'rsatishga harakat qiladi. Jamshid obrazi Saolibiyning talqinida dastlab bunyodkor shaxs sifatida gavdalanadi: "Jamshid odamlarni guruhlariga bo'lgach, har bir guruhga hunariga qarab vazifa yukladi. Birinchi guruhga kiruvchi harbiylar chegarani qo'riqlashi, tinchlikni ta'minlashi, ikkinchi guruhdagi doktorlar sog'liqni saqlashi, ruhoniylar ibodat bilan shug'ullanishi; uchinchi guruh tarkibiga kiruvchi kotib va hisobchilar o'z yumushlarini – hisob-kitob va yozuv ishlarini amalga oshirishi; to'rtinchi guruhdagi savdogar va hunarmand ahli esa narsa-buyumlar yasashi va savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'lishlari belgilab berildi. Shundan so'ng har kim o'z yumushi bilan band bo'ldi" [Tha'alibi, Abu Mansur., 12].

Firdavsiyning "Shohnoma"sida Jamshid odamlarni quyidagi tabaqalarga ajratadi. Birinchisi, Kotuziy – ruhoniylar; ikkinchisi, Nisoriy – lashkarlar; uchinchisi, Nasudiy – dehqonlar; to'rtinchisi, Axtuhushi – hunarmandlar. Bundan ko'rinadiki, Saolibiy Firdavsiyning asarini shunchaki nasrga aylantirmagan, "Shohnoma"dagi tafsilotlarga ijodiy yondashib, an'anaviy syujetning rivojlanishiga ma'lum darajada hissa qo'shgan.

"G'urar"da ham boshqa manbalar kabi Navro'zning nishonlanishi Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Saolibiy voqeani shunday tasvirlaydi: "elkasidan ilon o'sib chiqqan jin yer yuzi va samoda bemalol sayyohat qilib yurar edi. Odamlar qo'rqqanidan ko'chaga ham chiqisholmas edi. Bir kuni Jamshid

"Damovand"dan "Bobil"gacha uning yo'lini mahkam to'sib qo'ydi. Bu voqea Farvardin oyining Hurmuzd kunida sodir bo'ldi va bu kun Bahorning birinchi kuni, iblisning (aslida esa qishning) yakson bo'lishi va yil boshlanishining birinchi tongi sifatida nishonlana boshlandi. Odamlarning aytishlaricha, Navro'z deb ataladigan ushbu yangi va baxtli kun Jamshidga Xudo tomonidan berilgan inoyat va hadyadir. Ushbu kundan insonlarning barchasi sayrga chiqishgan" [Tha'alibi, Abu Mansur., 13]. Yelkasidan ilon o'sib chiqqan iblis obrazi –qahraton qishdir. Unga dahshatli va qo'rqinchli qiyofa berish maqsadida muallif shunday tasvirni qo'llaydi. Jamshidning barcha jonzotlarni qahraton qishdan asrash haqidagi ushbu syujet aslida "Avesto"dan olingan.

"G'urar"da Jamshid uch yuz o'ttiz yil davomida odamlarga tinch va qulay sharoit yaratib berganligi, insonlar ochlik, urush, zilzila, to'fon, jazirama isiq, qahraton sovuq va boshqa ofatlarni ko'rmay yashaganligi qayd etiladi. Jamshid zamonida odamlar baxtsizlik, sharmandalik va noahillik degan tushunchalarni unutishadi. Xullas, Jamshid insoniyatga to'kis hayot baxsh etadi.

Saolibiyning asarida Jamshid bilan bog'liq voqealar asosan "Avesto" syujeti asosida bayon etilgan. Biroq Saolibiy ushbu syujetni shunchaki o'zlashtirmasdan, unga ijodiy yondashadi. Masalan, "Avesto"da Jamshidning ming yil yashagani, uning davrida odamlar ochlik, tashnalik, qarilik va o'lim nima ekanligini unutganligi bayon etiladi. Saolibiy o'z asarida Jamshidning jasoratlarini madh etish barobarida insoniyatni muqarrar bo'lgan qarilik va o'limdan asrashini tilga olmaydi. Ya'ni, "Avesto"da mifologik obraz sifatida talqin etilgan Jamshidni bir qadar hayotiy qahramonga aylantiradi.

“G’urar”da bayon etilgan keyingi voqealarda an’anaviy syujet chiziqlari deyarli o’zgarmaydi. Jamshid kashfiyotlar yaratgach, g’ururga berilib ketadi. “Jamshid hunarlarni kashf qilgach, cheksiz shon-shuhratga ega bo’ladi; o’zining buyuk hukmronligini o’rnatadi. Odamlarning uzoq yashash sirlarini topadi. Shundan so’ng u o’zgaradi. Jamshidda manmanlik, beorlik, takabburlik xislatlari paydo bo’ladi. U odamlarga “men sizlarning buyuk xudongizman” deydi va xalqni o’ziga topinishga da’vat qiladi” [Tha’alibi, Abu Mansur., 16-17]. Xalqning undan ko’ngli qoladi. Hamma unga qarshi bo’ladi. Odamlarning Jamshidga bo’lgan yuksak ehtiromi nafratga aylanadi. Uning uchun baxsizlik kunlari boshlanadi. Shunda al-Zahhok al-Humayri asli Yamanlik, uning forscha nomi Bivarasf, Jamshidni mahf etish uchun iziga tushadi. Jamshid undan yashirinadi. Saolibiy hikoya qilishicha, Zahhok Jamshidni 500 yil qidiradi. “Shohnoma”da esa 100 yil deyilgan. Jamshid Zahhok tomonidan qatl ettiriladi.

“Saolibiyning Jamshid obrazini tasvirlashida Diynavariydan farqi shundaki, Saolibiy Jamshid timsolida o’ta manman va takabbur shaxs qiyofasini jonli tasvirda hamda ishonarli qiyofada yaratadi” [GhazzalDabiri., 62]. Shu bilan birga, Saolibiy Jamshidning yaratuvchanlik xususiyatini ham madh etadi. Madaniy turmush tarzining rivojlanishidagi roli beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Saolibiyning asarida Jamshid, hatto, g’alayon ko’targan isyonchi jinlarni ham maxv etib, ularni bunyodkorlik ishlari-ga safarbar qilgani alohida tilga olinadi. Demak, Jamshid obrazining badiiy adabiyotdagi ikki xil qiyofada: takabbur va bunyodkor shaxs sifatida, murakkab harakterda tasvirlanishi Saolibiy asari-

da davom etgan va yaqqolroq namoyon bo’lgan. Bizningcha Saolibiy “G’urar”ni yozishda boshqa manbalar bilan birga Firdavsiy dahosidan ham bahramand bo’lgan. Zeroki, “Shohnoma”dagi bir necha hikoyat Saolibiyda ham mavjud.

“Tarixi Tabariy”da Jamshid zikri

Sharqshunoslik tadqiqot markazi nodir qo’lyozmalar fondida № 18038 raqam bilan saqlanuvchi Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarining eski usmonli tilidagi tarjimasi mavjud. Kitob xajmi 18x26. 29 ta satr chizig’idan iborat. Asar Usmoniy tiliga tarjima qilinib, toshbosmada nashr etilgan. Kitobning dastlabki sahifalarida asar mundarijasi berilgan. Keyingi betda esa tarjimon Tabariyning asarini Istanbul bozoridan sotib olganini va tarjima qilganini aytadi. Ushbu asar Ibrohim Rashidiyning mablag’i evaziga Ahmad Xolusiy tomonidan nashr qilingan. Nashr sanasi yozilmagan.

Asar Odam alayhissalom haqidagi rivoyat bilan boshlanadi. Tabariy, “Avesto”ga ko’ra, birinchi yaratilgan odam Kayumarsning Odam alayhissalom ekanligini aytadi. “Rivoyat aydilarki, Kayumars Odam alayhissalom edi. Yer yuzinda nabototi va ma’odani va sulara podshoh o’ldi” [Tabariy, 3]

Tabariy o’z asarida Firdavsiy Tusiy nomini bir necha marta tilga oladi va uning “Shohnoma”sidan xabardor ekanligini uqtiradi. “Tarixi Tabariy”da zikr etilishicha, Kayumars odam 700 yil podshohlik qilgan. Undan so’ng mamlakat tojini Xushang kiyadi va u 400 yil hukmdorlik qiladi. Keyinchalik taxtni Tahmuras egallaydi. Uning podshohligi 100 yil davom etadi. Tahmuras vafot etgach, saltanat tug’ini Jamshid qo’lga oladi. Asarda Jamshid “Shohnoma”dagi kabi Tahmurasning o’g’li emas, qarindoshi deb talqin etiladi.

“Tarixi Tabariy”da Jamshid haqidagi hikoyat shunday boshlanadi. “So‘ylayki, rivoyat aydilarki, Tahmuras va Jamshid ikkisi qarindoshlar edi. Jamshid ulug‘ podshoh o‘ldi. Dunyoi boshdin besh xukm ayladi. G‘oyatda xub yuzluk va totlu so‘zluk kishi edi. Go‘zallikda so‘ylaydikim, har qanda ketsa, yuzining solasidin ketdiki, yerlar oydin o‘lurdi va kunduzlar” [Tabariy, 87]. Ma‘lumki, “Shohnoma”dagi Jamshidning go‘zalligi va tashqi qiyofasiga ko‘p ham urg‘u berilmaydi. Firdavsiy uning ko‘proq kashfiyotlari va yaratuvchilik xususiyatlarini madh etadi. Qadimgi yozma yodgorlik “Avesto”da esa Jamshidning go‘zal va xushxulq ekanligi alohida e‘tirof etiladi. Demak, Tabariy Jamshid shaxsini tasvirlashda eng qadimgi yozma manbalar asosida keyinchalik Sharq adabiyotida an’anaga aylangan badiiy qahramon qiyofasini yaratish uslubidan ijodiy ilhomlanadi.

Mazkur manbada Jamshidning adolatli podshoh ekanligi, ayniqsa, uning ijodkorlik xislati bo‘rttirib ko‘rsatiladi. “Bag‘oyat odil podshoh edi. Ul kishikim, jang olatin duzdi, qilich kabi va bolta kabi va zirh kabi va jushan va nekim bu kabi Jamshid ijod etdi” [Tabariy, 88]. Bundan tashqari, bir qancha ro‘zg‘or buyumlari va kasb-hunarlarining yaratilishi Jamshidga nisbat berilgan.

“Tarixi Tabariy”da Jamshid devlarni ham o‘z izmiga bo‘ysundirgani bayon etiladi. Jamshid gavhar va inju chiqarmoq kabi odamzot uchun mushkul bo‘lgan yumushlarni devlarga bajar-tirar edi. Ushbu asarda ham Jamshid “Shohnoma”dagi kabi odamlarni to‘rt tabaqaga ajratgan va har tabaqani o‘z korlari bilan mashg‘ul etadi.

Shuningdek, Tabariy Jamshidning taxtga o‘tirib xalqning shikoyat va arzini eshitgan kunini odamlar Navro‘z

deb atashganini yozadi. Shundan so‘ng har oyning bir kuni tayin etiladi, ya‘ni Navro‘z kunida xalqning mushkuli osonlashadi, muammolari hal bo‘ladi. “Tarixi Tabariy”da Navro‘z bahorning birinchi kuni yoki yasharish va yangilanish fasli ma‘nosida emas, xalqning arzi tinglanadigan kun sifatida e‘tirof etiladi. Bundan so‘ng “royi yo‘q, umri rohatda o‘ldir. Buning uzrini tamom 700 yil kechadir. Jamshid bu odati tark etmadi. Bundan avval 300 yil podshohliq etdi. 1000 yil tamom podshoh o‘ldi” [Tabariy, 88]. Jamshid ming yil davomida umuman kasal bo‘lmaydi. Demak, uzoq umr ko‘rish Jamshidning ezgu amallari evaziga berilgan xudoning tuhfasidir.

Jamshid haqidagi ko‘pgina asarlarda uchraydigan an’anaviy syujetga xos bo‘lgan qahramon xarakteridagi keskin burilish, ya‘ni Jamshid talaygina kashfiyotlarni yaratgach, takabburlikka berilib ketishi haqidagi voqea “Tarixi Tabariy”da birmuncha o‘zgartirilgan. Boshqa asarlardan farqli ravishda Jamshid qilgan kashfiyotlaridan g‘ururlanib emas, iblisning so‘ziga kirib badnom bo‘ladi. “Bir kuni qishliqda vaqti edi. Jamshid fikr edub, yolg‘uz o‘ltururdi. Qullar tashrada edi. Nogoh iblisi la‘in panjaradin ichra kirdi, Jamshid qorshusina turdi”. Jamshid iblisni ko‘rib, nima uchun kelganini so‘raydi. Iblis Jamshidga nasihati borligini aytadi. Ushbu voqea dialog asosida davom etadi.

“Iblis aydi: – Ey shoh, bilurmisenki, sen kimsan?

Jamshid aydi: – Bir odam o‘g‘lonimen.

Iblis aydi: – Yokalash so‘ylading, sen odam o‘g‘loni dag‘alsen. Agar odam o‘g‘loni o‘lsang, bu necha yil ichinda bir qora xasta o‘lur eding. So‘ngra bir dushmani bilur edi va boshinga og‘rita edi va ko‘kliga malomat kelidi.

Jamshid aydi: – Ben kim?

Iblis aydi: – Sen bu yer va ko'kning tangrisisan. Ushbu yerlari va

ko'klari va gunashi va oyi va yulduzi va bul jame maxluqot xabasin yaratding."

Iblis uni ko'p maqtaydi va tangri-likni davo qilishga undaydi. Xudo ekanligining belgisi sifatida otash yoqishini va odamlarni ana shu otashga sajda qilishga majburlashi lozimligini aytib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Jamshid otash yoqtirdi. Xalqi onda jam bo'ldi. "Tangringiz men, menga sajda qiling" dedi. Ishonmaganlarni olovda yoqtirdi va "har tarafda butlar tuzdirib, qo'ndurdi. Xalqni osdirib, fasoda verdi" [Tabariy, 88].

Tabariy hikoyat so'ngida ushbu voqea an'anaviy syujetga xos emasligini, o'zi tomonidan kiritilganini aytib o'tadi: "Bu qissa bundan avval daxi kelmasdi. Tamom o'lmadig'ondin bu orada daxi zagar o'landi" [Tabariy, 89].

"Tarixi Tabariy"da Bivarasp podshohlar naslidan ekanligi aytiladi. Odamlarning Jamshiddan ko'ngli qolgach, Bivarasp atrofiga to'planadi. Bivarasp ularga bosh bo'lib, Jamshid tomonga yurish qiladi. Xalqi, mamlakati va iqlimini oladi. Ikki taraf kurashadi. Jamshid qochadi. Bivarasp uning taxtini egallaydi va Jamshidni ta'qib ostiga oladi. Bivarasp Jamshidni bir yildan so'ng ushlaydi. "Bivarasp Jamshidni ikki pora bichtirdi. Porsilarning aytishlaricha, Jamshid qochganida Zobilistonga boradi. Zobil podshohining qiziga uylanadi. Ulardan bir o'g'ul bo'ladi. Ismini Tur deyilar. Andin daxi qochdi. Hindistona bordi. Onda xalok o'ldi" [Tabariy, 89].

Hikoyat so'ngida Tabariy Jamshidning avlodini nomma-nom sanaydi. Tur → Sadob → Turk → Shaham → O'tru → Kirshasp → Narimon → Som

→ Zol → Rustam → Faromarz. Tabariy ushbu ma'lumotlar Firdavsiyning "Shohnoma"sida keltirilganligini qayd etadi.

Tabariy Jamshidni Nuhning avlodi sifatida talqin etmaydi.

Demak, Tabariyga kelib, Jamshid obrazi yangi qirra kashf etib boradi; an'anaviy syujet "Shohnoma"ga bog'langanday bo'lsada, u yangi lavha bilan boyitiladi. Muallif Jamshid qahramonini ikki xil qiyofada ham mohirona tasvirlaydi. Tabariy asariga kelib, Jamshidga xos bo'lgan fazilatlar – mifologik bo'rttirmalar insoniy xarakterga aylanadi. Jamshidda dastlab namoyon bo'lgan ezgulik sifatleri, takabburlikka berilgach, qusurga aylanadi va uni halokatga olib keladi.

"Osor ul-boqiya"da Jamshid haqida

Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" – "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari qomusiy manba sifatida o'zbek badiiy adabiyotining rivojlanishiga ham omil bo'lgan. Masalan, birgina jihat: asarda keltirilgan turli xalqlardagi bayram va tantanalarning paydo bo'lishi va nishonlanishi haqidagi rivoyatlar jamlanmasi o'zbek folklori tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari mazkur asarda ko'pgina tarixiy-afsonaviy obrazlarning o'ziga xos talqini ham berilgan-ki, bu badiiy adabiyotdagi an'anaviy obraz va syujetlarning genezisini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, an'anaviy podshoh Jamshid obrazining o'zbek adabiyotidagi in'ikosi "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ham aks etgan. O'zbek adabiyotiga Jamshid obrazining kirib kelishida mazkur asar bevosita ko'priq vazifasini o'tagan. Garchand Beruniyning ushbu asari tarixiy-etnografik manba sifatida

e'tirof etilsada, unda jamlangan ak-sariyat afsona va rivoyatlar keyinchalik o'zbek adabiyotiga ko'chib, an'anaviylik asosida badiiy adabiyotning rivojlanishiga muhim xissa qo'shgan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining “Podshohlarning yashagan davrlari va hukmronlik yillari” haqida ma'lumot beruvchi bobida muallif “Eronliklarning birinchi qismi uch turga bo'linadi” deb yozadi. “Birinchisi – Peshdodiylar. Bular butun dunyoni egallab, shaharlar qurganlar, konlar chiqarib, hunarmandchilikka asos solganlar va yer yuzida adolat barpo etib, tangriga atalgan ibodatni ado etganlar” [Abu Rayhon Beruniy., 1968: 130]. Beruniy Jamshidning aynan shu Peshdodiylar sulolasidan ekanligini ta'kidlaydi.

Peshdodiylarning avvali Kayumars bilan boshlanadi. Chunki eronliklarning fikricha, dunyodagi birinchi yaratilgan inson Kayumarsdir. Beruniy Jamshidni Kayumarsning avlodi sifatida talqin etadi.

Muallifning yozishicha, Jamshid podshohlarning “adolatli peshdodiylar” turiga kirgan. Jamshiddan to Afridungacha o'tgan podshohlar “Shid” laqabi bilan ham mashhur bo'lishgan.

Beruniy eronliklarning podshohlar haqidagi ma'lumotini jadval asosida yillarga bo'lib chiqqan. Xususan, unda Jamshidning podshohlik faoliyati quyidagi davrlarga bo'lingan:

Shuningdek, muallif Peshdodiylarning hukmronlik yillari borasida Hamza ibn Husayn al-Isfahoniyning “Xalqlarning o'tib va yo'q bo'lib ketgan ulug'larining tarixlari kitobi” asarida “Avesto” va “Mu'bad qo'lyozmasi”ga tayanib, yozib qoldirgan fikrlarini boshqa jadvallar asosida ham qayd etadi. Unda Hamza ibn Husayn “Avesto”da Jamshid yashagan davrni 616 yil deb,

“Mu'bad qo'lyozmasi”da esa 616+100 yil (ya'ni, Jamshidning yashiringan davri ham qo'shilgan) etib belgilanganligi qayd etilgan.

Demak, Beruniy ushbu qiyosiy kuza-tishlari orqali boshqa eron podshohlari qatori afsonaviy shoh Jamshidning tarix sahnasidagi hukmronlik davrini tugal aniqlashga harakat qilgan. Bu esa Jamshid shaxsining tarixiy qiyofasini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, asarning “Eronliklar oylaridagi hayitlar va mashhur kunlar ustida so'z” bobida ham Jamshid faoliyati bilan bog'liq bir qancha ma'lumotlarni uchratamiz. Xususan, Beruniy turli qaydnoma va rivoyatlarga asoslanib, Navro'zning bayram sifatida nishonlanishini Jamshid nomi bilan bog'laydi. “Eron olimlarining ba'zisi: “U kunni Navro'z deb atashning sababi shuki, sobiylar Tahmuras davrida yuzaga chiqqanlar. Jamshid podshoh bo'lgach, [majusiylar] dinini yangiladi va bu ish qilingan kun, [ya'ni] navro'z “yangi kun” deb ataldi, bu kun, garchi u [Jamshiddan] oldin ham hurmat qilingan bo'lsa-da, hayitga aylantirildi” [Abu Rayhon Beruniy., 254]. Beruniy o'z asarida bir qancha manba va og'zaki afsonalarda keltirilgan Jamshid shaxsi bilan bog'liq talaygina ma'lumotlarni bir yerga jamlaydi; ularni ketma-ketlikda, “qo'shimcha va izohlarsiz” – asliyatdagiday hikoya qilishga harakat qiladi. Shu sababli bir mavzuda, masalan, Jamshid obrazining Navro'z kulti bilan bog'lanishi haqidagi turfa xil rivoyatlarni bir yo'sinda, navbatma-navbat naql qiladi. Ushbu rivoyalarda voqealar turlicha tasvirlansada, deyarli ularning barchasida Navro'zning paydo bo'lishi va tantana qilinishi Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Beruniy voqeani rivoyat etish barobarida podshoh Jamshidning

ulug'vorlik va yaratuvchilik sifatlarini ham tasvirlaydi. "Jamshid [o'ziga] arava yasab olgach, o'sha kuni aravaga chiqdi, jinlar va shaytonlar uni havo-ga ko'tarib, bir kunda Dunbovanddan Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko'rgach, o'sha kunni hayit qildilar va Jamshidning [aravada uchishiga] taqlid qilib arg'imchoqlarda uchdilar" [Abu Rayhon Beruniy., 255].

Boshqa bir rivoyatda naql qilinishicha, Jamshid Ozarbayjonda bo'lishni istab, tilladan yasalgan taxtga o'tiradi. Odamlar taxtni yelkalariga ko'tarishadi. Shu payt Jamshidga quyosh nuri tushib, odamlarning ko'zini qamashtiradi. Bundan sevingan xalq ushbu kunni Navro'z deb bayram qilishadi. Hind-eron mifologiyasida ham Jamshid nomining "quyosh farzandi", "nurli", "quyoshdek yorqin" kabi jumlar bilan qo'shib aytilishining asosida ushbu afsona yotganligi shubhasizdir.

Beruniy Jamshidning kashfiyotchilik va yaratuvchilik xislatini Navro'zning paydo bo'lishi bilan bog'lab tasvirlaydi. Shu sababli ushbu kunda Jamshid tomonidan asos solingan turli marosim va kashfiyotlar eronliklar uchun rasmga, urfga aylanganini ta'kidlaydi. Masalan, eronliklarning Navro'z kuni bir-birlariga shakar hadya qilishining boisi haqida shunday deydi: "Bog'dod mu'badi Ozarbodning hikoya qilishicha, buning [sababi], navro'z kuni Jamshid mamlakatida shakarqamish paydo bo'lgan, bu shu vaqtgacha bilinmagan edi. Jamshid sersuv bir qamishdan shira tomchilayotganini ko'rgan. Uni totib qaragan, unda lazzatli shirinlik borligini bilgach, suvini chiqarib, shirasidan shakar ishlashni buyurgan. [Shakar] beshinchi kuni ko'tarib olingan va tabriklash uchun uni bir-birlariga hadya qilganlar" [Abu Rayhon Beruniy., 255].

Bundan ko'rinadiki, Beruniy podshoh Jamshid obrazini tasvirlashda mavjud manbalardagi uning shaxsiyatiga oid barcha sifat va qirralarni qamrab olishga harakat qiladi. Ushbu obraz haqidagi boshqa tarixiy asarlardan farqli ravishda muallif o'z asarida Jamshid faoliyatini, asosan, Navro'zning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar doirasida tasvirlaydi. Ya'ni, Beruniy Jamshid haqida so'zlagan rivoyatlarini "Navro'z" va "Jamshid" nuqtalari atrofiga biriktiradi.

Beruniyning o'ziga xosligi yana shunda namoyon bo'ladiki, u qadimgi milliy bayramning tarixini yoritish barobarida podshoh Jamshidning elparvarlik, yurtsevarlik sifatlarini ham mohirona tasvirlaydi. Muallif keltirgan rivoyatda naql qilinishicha, Iblisning kasofati bilan dunyo halokatga yaqinlashadi. "Shunda xudoning amri va yo'l ko'rsatishi bilan Jamshid Iblis va uning yordamchilari turgan joyni mo'ljallab, janubiy tomonga borgan va to barokatsizlikni ketkizgunicha bir qancha vaqt o'sha yerda qolgan. Odamlar yana mo'tadil [holatga], barakot va faravonlikka qaytib, balodan qutulganlar. Shu vaqt Jamshid dunyoga qaytib, shu kuni quyoshdek tulu etgan va undan nur taralib turgan" [Abu Rayhon Beruniy., 256]. Tabiat yana qayta jonlanib, o'simliklar ko'kara boshlagan. Ushbu kunni odamlar "ro'zi nav", ya'ni "yangi kun" deganlar.

Beruniy Jamshid tomonidan qilingan ko'pgina kashfiyotlarni ham ushbu kunda sodir bo'lganligini alohida ta'kidlaydi. Masalan, shu kuni Jamshid uzoqqa ketganlarga xat yozib, eski maqbaralarni buzishga va shunday kunda yangi maqbara qurmaslikka buyuradi. Bu odat xudoga ham xush kelib, aynan shu kuni Xudo Jamshidni mukofatlaydi. Ya'ni, Jamshidning xalqidan "turli kasalliklar, qartayish, hasadlik, yo'qchilik, g'am va

musibatlarni” yiroqlashtiradi. Beruniy to Jamshidning hamshirasini o’g’li Bivarosf mamlakatga ega bo’lgunicha, xalqda qarish va o’lim bo’lmaganligini e’tirof etadi.

Shuningdek, Beruniy Jamshid zamonida xalq ko’payib, yer torlik qilgani va xudo yerni uch barobar kengaytirgani; podshoh Jamshid anhorlarni qazdirib, yurtga suv keltirgani va mamlakatni obod qilgani haqidagi rivoyatlarni ham keltiradi. Demak, Beruniy o’z asarida Jamshid obrazining turli qiralarini; kashfiyotchilik, yaratuvchilik, bunyodkorlik, odamlarga yaxshilik qilish va elparvarlik xislatlarini yorqin tasvirlashga erishgan va bu ma’lumotlarni keltirishda bevosita “Avesto” manbalaridan bahramand bo’lgan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham qadimgi tarixiy manbalardagi singari Jamshidning o’ldirilishi Zahhok tomonidan amalga oshirilgani qayd etilgan. Mazkur asarda podshoh Jamshidning o’ziga xos xislat va fazilatlari nisbatan to’laqonli aks etgan. Ayniqsa, muallif Jamshid obrazi haqidagi turli rivoyatlarni ketma-ket va jamlangan holda rivoya qilish orqali o’zbek adabiyoti tarixidagi an’anaviy Jamshid syujetining paydo bo’lishiga zamin hozirlagan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari bilan deyarli bir asrda yozilgan Firdavsiyning “Shohnoma”sida Jamshid qahramoni – badiiy obraz, uning faoliyati – tugal doston tarzida yaratilgan bo’lsa-da, o’zbek adabiyotidagi Jamshid obrazining shakllanishida o’z hissi bor. Chunki muallifning mazkur asarida Jamshid qahramoni tarix sahnasida o’z o’rniga ega, adolatli, bunyodkor va elparvar shaxs sifatida o’ziga xos ibratomuz tasvirlangan.

Garchand allomaning mazkur asari davr taqozosi o’laroq arab tilida bitilgan bo’lsada, undagi Jamshid haqida turli og’zaki va yozma manbalar asosida to’plangan ushbu ma’lumotlar keyingi davrlarda o’zbek badiiy adabiyotidagi an’anaviy Jamshid obrazining paydo bo’lishi va rivojlanishi uchun asos bo’lgan, deyish mumkin.

Xulosa

Jamshid obrazining tarixiy-badiiy asarlardagi talqini yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkin: Abu Hanifa Diynavariyning “*لأوطلا رابخال باتك*” asarida ilk bor Jamshidni Nuh payg’ambarning avlodi ekanligi ta’kidlanadi va bu ma’lumot keyinchalik o’zbek adabiyotidagi Jamshid qissasida ham saqlanib qoladi. Diynavariy Jamshid, al-Zahhok, Faridun kabi mifologik obrazlarni avvalgi “Avesto”dagi xususiyatlarini saqlagan holda ularni tarixiy-badiiy qahramonga aylantiradi.

An’anaviy shoh Jamshid qahramoni birinchi marotaba Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sida tugal badiiy obraz sifatida talqin etiladi. Firdavsiy Jamshid obrazining “Avesto”dagi qiyofasiga ijodiy ishlov beradi; natijada, “Shohnoma” qahramoni Jamshidga xos yangi badiiy qirralar namoyon bo’ladi. O’zbek adabiyotidagi bir qancha xalq kitoblari aynan “Shohnoma” ta’sirida yaratilgan, jumladan, “Qissai Jamshid”da ham “Shohnoma”dagi an’anaviy syujet yaqqol aks etadi.

Saolibiyning asarida Jamshidning yaratuvchilik fazilatlari ulug’lanadi. Saolibiy shoh Jamshidni xuddi “Avesto”dagi kabi odamlarni kasb-hunariga qarab to’rt guruhga ajratganini ta’kidlaydi. Muallif Jamshid qahramonini “Avesto”dan ilhomlanib, an’anav-

iy syujet asosida yaratgan bo'lsa-da, "G'urar"da Jamshid obrazi ikki xil qiyofani o'zida aks ettirgan murakkab obraz sifatida jonli va ishonarli tasvirlanadi, hattoki, Jamshid obrazini bir qadar hayotiy qahramonga aylantiradi.

Tabariyning "Tarixi Tabariy" asarida Jamshid qahramoni tarixiy obraz sifatida talqin etiladi. Tabariy o'z asarida Jamshid bilan bog'liq an'anaviy syujetni birmuncha o'zgartiradi, syujet voqealarini boyitadi, obrazga yangi qirralarni singdiradi.

Beruniyning "Qadimgi xalqlardan

qolgan yodgorliklar" asarida Jamshid bilan bog'liq voqealar tarixiy-etnografik yo'sinda talqin etiladi. Asarda Jamshid haqidagi turli ma'lumotlar o'zgarishsiz holda beriladi, muallif ba'zan bir xil lavhalarni turli manbalardan keltirilganligi bois, takror ham uchratish mumkin. Jamshid obrazi haqidagi barcha qadimgi tarixiy-afsonaviy kitoblardan olingan lavhalar Beruniy asarida bir yerga jamlanganligi sababli, ushbu asarni o'zbek adabiyotidagi an'anaviy Jamshid obrazi yaratilishida poydevor bo'lgan, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Manbalar

Abu Rayhon Beruniy. (1968). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan.

Abulqosim Firdavsiy (2011). Shohnoma. Forsiydan Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, Nazarmat, H.G'ulom tarjimasini. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 736 b.

Diynavariy. (1330). Al-axbor al-tavol. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi. Toshbosma, inv. № 17049. 383 v.

Dinavari Abi Hanifah Ahmad Davud. (1995). al-Akhbaral-Tiwal. Edited by Umar Faruq al-Tabba. Beirut: Dar al-Arqamibn Abl al-Arqam.

Tha'alibi, Abu Mansur. (1900). Ghurar Akhbar Mulak al-Furs wa Siyarihimi. ed. and trans. H. Zotenberg. Paris: Imprimerie Nationale.

Tarixi Tabariy. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi. Toshbosma, inv. №18038.

Ilmiy – nazariy adabiyotlar

Ismoilpur A. "Shohnoma"da Kayxusrav afsonasi: // Sino. 2011. № 41-42. – B 6.

Omid Shiva. Poema "Shaxname" Firdousi kak istochnik po izucheniyu etnogeografii, istorii i kultury iranoyazychnykh narodov: avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni doktora istoricheskix nauk. – Dushanbe: 2013. 20 s.

Yuhan Sohrab–Dinshaw Vevaina. (2007). Studies in Zoroastrian Exegesis and Hermeneutics with a Critical Edition of the Sudgar Nask of Denkart Book 9. Doctor of Philosophy in the subject of Iranian and Persian Studies. Harvard University Cambridge. – Massachusetts: 375 r.

Ghazzal Dabiri. The Origins and Development of Persian Epics. Adissertation submitted in partial satisfaction of their quirements for the degree Doctor of Philosophy in Near Eastern Languages and Cultures University of California, Los Angeles: 2007. 211 r.

Mallaev N. (1974). Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 383 b.

Огудин В.Л. Природные места поклонения в религиозных представлениях современного населения Ферганы: Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Москва: 2003. 391с.